



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxamedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	27
Xojmurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDiy IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA NOMOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	



TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA NOMOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Iskanov Xoljigit Nurkosimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

E-mail: xoljigitiskanov@gmail.com

ORCID: 0009-0005-7274-3369

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar tarkibi, ularning harakati hamda hisobini yuritishning amaliy jihatlari tadqiq etilgan bo'lib, ushbu jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tibbiyot tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar asosan budget mablag'lari va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan kirim qilinadi. Nomoliyaviy aktivlar tovar-moddiy zaxiralar, nomoddiy aktivlar va asosiy vositalardan iborat. Ularning kirim qilinishi xarid qilish, tekinga olish hamda o'zida tayyorlash jarayonlari orqali amalga oshirilsa, hisobdan chiqarilishi esa to'liq eskirish, yaroqsiz holatga kelish yoki keraksiz aktivlarni sotish orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlarning haqqoniyligini ta'minlash va nazoratini kuchaytirish uzluksiz buxgalteriya hisobi yuritilishi orqali amalga oshiriladi. Hisob yuritish jarayonida nomoliyaviy aktivlarning balans qiymati va haqqoniy qiymatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada raqamli texnologiyalar va hisob tizimidagi islohotlar sharoitida nomoliyaviy aktivlarni baholash, hisobda aks ettirish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibini takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: asosiy vosita, buxgalteriya hisobi, daromad, moliyaviy hisobot, nomoddiy aktiv, nomoliyaviy aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar, xarajat, tibbiyot tashkiloti.

Abstract. This article examines the composition, movement, and practical aspects of accounting for non-financial assets in healthcare organizations and develops scientific proposals and practical recommendations for their improvement. In healthcare institutions, non-financial assets are mainly acquired through budget funds and development fund resources. Non-financial assets include inventories, intangible assets, and fixed assets. Their acquisition occurs through purchase, free receipt, or internal production, while disposal is carried out through full depreciation, obsolescence, or sale of unnecessary assets. Ensuring accuracy and control of these processes requires continuous accounting practices. During accounting, determining both the carrying amount and fair value of non-financial assets becomes essential. The article proposes improvements in valuation, accounting recognition, and financial reporting of non-financial assets in the context of accounting reforms and the application of digital technologies.

Key words: fixed assets, accounting, income, financial reporting, intangible assets, non-financial assets, inventories, expenses, healthcare organization.

Аннотация. В данной статье исследуются состав, движение и практические аспекты учета нефинансовых активов в медицинских организациях, а также разрабатываются научные предложения и практические рекомендации по их совершенствованию. В медицинских учреждениях нефинансовые активы формируются в основном за счет бюджетных средств и средств фонда развития. Нефинансовые активы включают товарно-материальные запасы, нематериальные активы и основные средства. Их поступление осуществляется путем приобретения, безвозмездного получения или собственного изготовления, а выбытие — через полное изнашивание, непригодность или продажу ненужных активов. Обеспечение достоверности и контроля этих процессов достигается путем непрерывного ведения бухгалтерского учета. В процессе учета возникает необходимость определения балансовой и справедливой стоимости нефинансовых активов. В статье предложены меры по совершенствованию оценки, отражения в учете и составления финансовой отчетности в условиях реформ учета и внедрения цифровых технологий.

Ключевые слова: основные средства, бухгалтерский учет, доход, финансовая отчетность, нематериальные активы, нефинансовые активы, товарно-материальные запасы, расходы, медицинская организация.



KIRISH

Dunyoda davlat sektori subyektlarida nomoliyaviy aktivlardan samarali foydalanishni ta'minlash, ularning harakatida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish davlat sektorida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirib borishni taqozo etadi. Xalqaro tahlillar shuni ko'rsatadiki, "bugungi kunda davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini to'g'ridan to'g'ri qabul qilgan mamlakatlar soni cheklangan bo'lib, ular umumiy mamlakatlar sonining taxminan 10–15 foizini tashkil etadi. Qisman yoki bosqichma-bosqich joriy etgan mamlakatlar esa 50 foizdan ortiqni tashkil qiladi" [3]. Rivojlangan mamlakatlarda budget tashkilotlarining asosiy qismi davlat budgeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi ularda moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini kengaytirish, hisob ma'lumotlarining ishonchligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlashni talab etadi. Ayniqsa, budget tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlarni aktiv sifatida tan olish, baholash, qayta baholash hamda ular bo'yicha axborotlarni moliyaviy hisobotlarda to'liq ochib berish masalalari davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari talablari asosida amalga oshiriladi.

Jahonda budget tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobini xalqaro hisob standartlariga moslashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Asosiy vositalar qiymatining qadsizlanishini aniqlash usullari va ularni hisobga olish, asosiy vositalarning haqqoniy qiymatini aniqlash, ulardan samarali foydalanish hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchligini ta'minlash, nomoliyaviy aktivlarni tan olish, baholash va hisobda aks ettirish masalalari keng o'rganilgan. Lekin tadqiqotlarda nomoliyaviy aktivlarga tegishli moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini oshirish hamda ularning hisobini tashkil etishni xalqaro hisob standartlari talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha yetarli ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

O'zbekistonda budget tashkilotlarini moliyalashtirish tizimini izchil takomillashtirish, mablag'lardan maqsadli va manzilli foydalanishni ta'minlashda hisobdorlik va ochiqlik prinsiplariga amal qilish belgilab berilmoqda. Ijtimoiy sohaning eng asosiy bo'g'ini sanalgan "tibbiyotga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini 2 barobarga oshirish" [1], tibbiyot tashkilotlarida "tibbiy asbob-uskunalarining texnik holatini yaxshilash, dori vositalari, tibbiyot buyumlari, tibbiy texnika va sarflash materiallari hisobini hamda monitoringini yuritish" [2] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda sog'liqni saqlash tizimidagi budget tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobini davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablariga muvofiqlashtirish, ularni tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bo'yicha izlanishlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Shu bois, budget tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobini yuritishni takomillashtirish ustuvor masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budget tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobining nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish va takomillashtirish yuzasidan qator xorijiy olimlar tadqiqot olib borgan. Ular jumlasiga Jens Heiling [6], Anwar Shah [4], MDH olimlaridan V. V. Bashkatov va Yu. Pokusaev [5]ni kiritish mumkin.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan S. U. Mehmonov [7], Sh. M. Qurbonov [9], A. A. Ostonokulov [8] larning asarlarida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit, budget hisobi, hisobot va nazoratning nazariy masalalari hamda ularni rivojlantirish yo'nalishlari o'rganilgan. Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan budget tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobiga oid muammolar kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat tadqiqot ishida o'rganilgan ilmiy-amaliy muammolar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLGIYASI

Tadqiqot ishi doirasida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, statistika hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tibbiyot tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar aholiga sifatli va o'z vaqtida tibbiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashda, shu jumladan davlat tomonidan kafolatlangan hajmlarda, vazirlik organlari va tashkilotlari rahbarlarining roli va mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan holda, fuqarolarning sog'lig'ini saqlash maqsadida foydalaniladi.

Tibbiyot tashkilotlari budget va budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan o'z vazifalarini amalga oshirish uchun moddiy-texnik bazalarini shakllantiradi, ya'ni budget va budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan nomoliyaviy aktivlar kirim qilinadi va saqlanadi. O'z navbatida, tashkilotdagi nomoliyaviy aktivlardan oqilona foydalanish va ularning to'g'ri saqlanishini ta'minlash maqsadida ularni doimiy ravishda nazorat qilish zarurati vujudga keladi.




Nomoliyaviy aktivlarni buxgalteriyada hisobga olishning eng asosiy vazifalaridan biri — mavjud nomoliyaviy aktivlardan to'g'ri va unumli foydalanib, imkon qadar ko'proq va sifatli ish hamda xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashdir. Tibbiyot tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlarning mavjudligi va harakati analitik hamda sintetik hisoblarda yuritilishi zarur. Analitik hisob buxgalteriya hisobi obyektlari haqidagi batafsil axborotlarni shakllantirish maqsadida buxgalteriya hisobi subyekti tomonidan mustaqil ravishda belgilanadigan tartibda yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining 8-sonli standarti — "Ko'chmas mulk, bino va jihozlar" O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi hamda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq budjet tashkilotlari, davlat maqsadli va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalarning ko'chmas mulk, bino va jihozlar hamda tovar-moddiy zaxiralari hisobini yuritish tartibini belgilaydi.

Nomoliyaviy aktivlar hisobini yuritish moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun tashkilotlarning nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalari va ularning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni ochib beradi. Nomoliyaviy aktivlar hisobini yuritishda aktivlar tan olinadi, ularning balans qiymati, amortizatsiyasi hamda qayta baholashdan ko'rilgan zararlar aniqlanadi.

Nomoliyaviy aktivlar birligining tan olinishi uchun foydalaniladigan o'lchov birliklari hisobga olinmaydi. Obyektning bir butunligini ta'minlovchi qo'shimcha obyektlar bir obyekt sifatida tan olinadi. Nomoliyaviy aktivlardan foydalanish uchun qilingan xarajatlar balans qiymatida aks ettirilmaydi. Ushbu xarajatlar yuzaga kelish jarayonida haqiqiy xarajatlarda ko'rsatiladi va sarflangan materiallarga qilingan xarajatlarni ham o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Nomoddiy aktivlarning aktiv sifatida tan olinishi¹

Tibbiyot tashkilotlari o'z faoliyatini amalga oshirishda zarur nomoliyaviy aktivlarga ehtiyoj sezadi. Ushbu ehtiyoj bir vaqtning o'zida budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Budjet tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish orqali ish sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni tizimli yo'lga qo'yish mablag'lardan oqilona foydalanishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, tibbiyot tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlardan unumli foydalanishni ta'minlash uchun ularning hisobini yuritish va nazoratini amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Nomoliyaviy aktivlar tibbiyot muassasalariga turli usullar vositasida kirim qilinishi mumkin. Ushbu kirim jarayonlarida ularning qiymatini aniqlash, kirim qilish bilan bog'liq bevosita va bilvosita xarajatlarni hisobga olish, nomoliyaviy aktivlarning boshlang'ich qiymatini va tannarxini to'g'ri aniqlash asosiy vositalarning buxgalteriya hisobidagi qiymati bilan bozor qiymati o'rtasidagi tafovutlarning oldini oladi hamda ularning maqsadli sarflanishiga xizmat qiladi.

Ayni vaqtda tibbiyot muassasalarida nomoliyaviy aktivlarning qiymatini aniqlash, hisobni tashkil etish hamda yuritish, ularning harakatiga oid moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning me'yoriy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, asosiy vositalarning tibbiyot muassasalaridagi harakati bilan bog'liq barcha jihatlar qamrab olingan. Ammo iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi, zamonaviy texnik vositalarning paydo bo'lishi, moddiy zaxiralarni ishlab chiqarish va yetkazib berishdagi infratuzilmalarning o'zgarib borishi nomoliyaviy aktivlarni tan olish, ularni baholash va hisobga olish bilan bog'liq belgilangan tartiblarni takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Nomoliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobiga kirim qilinishi ularning dastlabki qiymati yoki tannarxi bo'yicha amalga oshiriladi. Sotib olingan nomoliyaviy aktivlar, tugallangan qurilishlar va inshootlar, shuningdek, tashkilotning o'zida tayyorlangan nomoliyaviy aktivlarning dastlabki qiymatiga ularni sotib olish narxi hamda ularga qilingan barcha xarajatlar to'liq summada, jumladan, mazkur nomoliyaviy aktivlarni foydalanish uchun ishchi holatga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish, montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va boshqa xarajatlar ham kiritiladi.

¹ Muallif tomonidan shakllantirilgan




Tashkilotning o'zida tayyorlangan (qurilgan) asosiy vositalarning dastlabki qiymati asosiy vositalarni tiklash (qurish, qurib bitkazish) bo'yicha hamda tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha esa tannarx yuzasidan amalga oshirilgan barcha haqiqiy xarajatlar summasi bo'yicha aks ettiriladi. Beg'araz olingan nomoliyaviy aktivlarning qiymati buxgalteriya hisobida xarajatlarni hisobga olgan holda, buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi ularning belgilangan tartibda aniqlangan joriy qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Bundan tashqari, muassasada mashina va jihozlarning kirimi va harakati 2169-son "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma"ga asosan, moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar umumlashtirilgan holda "Mashina va jihozlar" schyotida hisobga olinadi. Bu esa, albatta, buxgalteriya ma'lumotlarini shakllantirishda axborotlarning shaffofligini to'liq ta'minlamaydi.

Tadqiq etilayotgan tibbiyot tashkilotida nomoliyaviy aktivlar tarkibida asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralar mavjud bo'lib, ular budget mablag'lari va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan kiritilgan kelinmoqda.


Nomoliyaviy aktivlarning harakati va davriy tarkibiy o'zgarishini o'rganishda ularning har birini alohida ko'rib chiqish zarur. Negaki, nomoliyaviy aktivlarning mavjudligi, ularning qiymatining o'sishi, budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan kiritilishi holatini turlari asosida ko'rib chiqish orqali aynan qaysi nomoliyaviy aktivlarda qiymat o'zgarishlari kuzatilayotganligi, qaysi nomoliyaviy aktivlar qaysi moliyalashtirish manbasi hisobidan kiritilayotganligi va qaysi manbalar hisobidan moliyalashtirilayotganligini o'rganish mumkin bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Asosiy vositalarning kiritilish yo'nalishlari (foiz)²

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020–2023-yillarda Respublika ixtisoslashtirilgan Ruhiiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazida asosiy vositalar sotib olish orqali kiritilishi yuqori holatda bo'lgan. Ayniqsa, 2022–2023-yillarda sotib olish orqali asosiy vositalarni kiritilish deyarli 3/4 qismini tashkil etgan. Qayta baholash natijasida kiritilishi 2020, 2021 va 2024-yillarda yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. Tekinga olish holati bo'yicha esa 2025-yilda 91,4 foizni tashkil etgan.

Ushbu davrda markazda TMZlarning kiritilishi holatini o'rganadigan bo'lsak, asosiy vositalarga o'xshash jihatlarni ko'rish mumkin (3-rasm).



3-rasm. TMZlarning kiritilish yo'nalishlari (foiz)³

2 Ruhiiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

3 Ruhiiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan



TMZlarni tekinga olish holati doimiy holat sanalsa-da, uning qiymati unchalik yuqori emas. Ammo 2025-yilda kirim qilingan TMZlar qiymatida tekinga olinganlik holati 14,8 foizni tashkil etgan. Ushbu holatda tekinga olingan TMZlar tarkibida 22 965,6 ming soʻmlik qism (yoki 11,9 foiz) budget mablagʻlari bilan bogʻliq holda markazlashtirilgan tarzda Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan, 169 478,8 ming soʻmlik qism (yoki 88,1 foiz) esa budgetdan tashqari mablagʻlar, yaʼni homiylik shaklida Respublika ixtisoslashtirilgan Ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga berilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, nomoliyaviy aktivlarning kirim qilinishi jarayonida kirim bilan bogʻliq xarajatlar jamlanadi hamda asosiy vositalar boʻyicha boshlangʻich qiymatga, TMZlar boʻyicha esa tannarxga kiritiladi. Bu jarayon hujjatlar asosida buxgalteriya hisobida qayd etib boriladi. Ushbu jarayonda nomoliyaviy aktivlar kirimi boʻyicha tahliliy maʼlumotlarni shakllantirib borish ularni toʻgʻri boshqarish, moddiy javobgar shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish hamda kelgusi davr uchun toʻgʻri rejalashtirishda buxgalteriya ishlarini soddalashtirish va hisob-kitoblarni yengillashtirishga imkon yaratadi.

Hisobga kirim qilingan nomoliyaviy aktivlarning boshlangʻich qiymati oʻzgarishi nomoliyaviy aktivlar obyektlarida qoʻshimcha qurilish ishlarini amalga oshirish, qoʻshimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya hamda modernizatsiya qilish, qisman tugatish yoki qayta baholash amalga oshirilgan hollarda ruxsat etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budget tizimida budget mablagʻlarining maqsadli sarflanishi va davlat aktivlaridan oqilona hamda samarali foydalanishni taʼminlash uchun bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, budget tashkilotlarini zamonaviy nomoliyaviy aktivlar bilan taʼminlash muhim hisoblanadi. Ayniqsa, tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiy jihozlar, texnik vositalar hamda zarur moddiy zaxiralar bilan taʼminlash tibbiyot muassasalari faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tibbiyot muassasalarida nomoliyaviy aktivlar turlari boʻyicha tarkiblanadi va ularning hisobi yuritiladi. Iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarning yangicha talqini, hisoblash usullari, xizmat koʻrsatish tarkibining kengayishi nomoliyaviy aktivlar turlarining kengayishini taqozo etadi. Bu jarayon ilgʻor xorij tajribalari hamda davlat sektorida buxgalteriya hisobining standartlari asosida olib borilishi talab etiladi. Shuningdek, tibbiyot muassasalarida faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib, nomoliyaviy aktivlar hisobini yuritishda tahliliy hisob axborotlarini shakllantirish zaruriyati vujudga keladi.

Tibbiyot muassasalarida nomoliyaviy aktivlarning kirib kelishi, saqlanishi, sarflanishi va hisobdan chiqarilishi jarayonida ularning balans qiymati boʻyicha budget mablagʻlari va budgetdan tashqari mablagʻlar kesimida hisob-kitob tartiblarini ishlab chiqish taqozo etiladi.

Tibbiyot muassasalarida nomoliyaviy aktivlar bir vaqtning oʻzida budget mablagʻlari va budgetdan tashqari mablagʻlar hisobidan kirim qilinishi ularning boshlangʻich qiymati, amortizatsiya qiymati va balans qiymatini aniqlash jarayonida tahliliy hisob ishlarini yuritishni talab etadi. Bundan tashqari, kapital taʼmirlash yoki joriy taʼmirlash ishlari turli moliyalashtirish manbalari orqali amalga oshirilishi kapitallashtiriladigan qiymatlarni hisobga olish hamda ularning ishonchligi va toʻgʻriligini aniqlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xoʻjalik va kanselyariya mollari boʻyicha moliya yili oxiriga boʻlgan qoldiqlarni aniqlash uchun belgilangan kun meʼyorlarini 30 kunga uzaytirish zarur. Bu orqali tibbiyot tashkilotlarining budget va budgetdan tashqari mablagʻlari boʻyicha "Xoʻjalik va kanselyariya mollari" xarajatlar moddasini asoslangan holda rejalashtirish va maqsadli moliyalashtirishga erishiladi.

Tibbiyot tashkilotlarining hisob siyosatida 221 220 – "Mashina va jihozlar" buxgalteriya schyoti tarkibida 221 220/1 – "Budget mablagʻlari boʻyicha kirim qilingan mashina va jihozlar" va 221 220/2 – "Tibbiyot muassasalarini moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari boʻyicha kirim qilingan mashina va jihozlar", shuningdek, 231 220 – "Mashina va jihozlarning amortizatsiyasi" buxgalteriya schyoti tarkibida 231 220/1 – "Budget mablagʻlari boʻyicha kirim qilingan mashina va jihozlarning amortizatsiyasi" va 231 220/2 – "Tibbiyot muassasalarini moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari boʻyicha kirim qilingan mashina va jihozlarning amortizatsiyasi" ishchi schyotlarini joriy etish zarur.

Shuningdek, tibbiyot tashkilotlarining hisob siyosatida 161 210 – "Dori-darmonlar va tibbiyotda foydalaniladigan vositalar" buxgalteriya schyoti tarkibida 161 210/1 – "Budget mablagʻlari boʻyicha kirim qilingan dori-darmonlar va tibbiyotda foydalaniladigan vositalar" va 161 210/2 – "Tibbiyot muassasalarini moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari boʻyicha kirim qilingan dori-darmonlar va tibbiyotda foydalaniladigan vositalar", hamda 161 410 – "Xoʻjalik mahsulotlari" buxgalteriya schyoti tarkibida 161 410/1 – "Budget mablagʻlari boʻyicha kirim qilingan xoʻjalik mollari" va 161 410/2 – "Tibbiyot muassasalarini moddiy ragʻbatlantirish va rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari boʻyicha kirim qilingan xoʻjalik mollari" ishchi buxgalteriya schyotlarini joriy etish zarur.



Tashkilotda asosiy vositalar qisman tugatilgan holatda ularning boshlang'ich qiymati va hisoblangan amortizatsiya summasi tegishlacha obyekt tugatilgan qismining boshlang'ich qiymati va hisoblangan amortizatsiya summasiga kamaytiriladi. Bu orqali asosiy vositalar aktiv sifatida tan olinadi hamda moliyaviy hisobotlarda ularning qiymati ishonchligi va shaffofligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5590-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4096197>
3. IFAC. International Public Sector Financial Accountability Index, 2023.
4. Shah, Anwar. Public Sector Governance and Accountability Series: Budgeting and Budgetary Institutions. Washington, D.C.: The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank, 2007.
5. Башкатов В. В., Покусаев Ю. П. Особенности бухгалтерского учета в бюджетных учреждениях. Современная наука: актуальные проблемы и пути их решения, №13, 2014. – 320 б.
6. Heiling Jens. Contributing to the Global Economy. Public Sector Accounting – A Discipline in Its Own Right. Ernst & Young GmbH, Stuttgart, Germany, 29 September 2020.
7. Mehmonov S. U., Ubaydullaev D. Yu. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. Darslik. Toshkent: "Sano-standart", 2013. – 186 b.
8. Ostonokulov A. A. Budget tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2021. – 73 b.
9. Kurbanov Sh. M. Davlat tibbiyot tashkilotlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2022. – 58 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>